



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA RANGDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti, PhD Xalimov Mohir

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
yo'nalishi I- bosqich talabasi Maxkamova Sevinch Bahodir qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda san'atning rivojlanishi, tasviriy san'atga bo'lgan e'tibor hamda ularning rangtasvir san'ati bilan bog'liqligi yoritib berilgan. Maqolaning asosiy maqsadi sifatida rangtasvir san'atida yangi usullardan samarali foydalanib, talabalarning mahoratlarini oshirish ko'zda tutilgan. Unda ranglarning psixologik ta'siri, iliq va sovuq ranglar uyg'unligi, hamda yorug'lik-soya muvozanatini yaratishdagi amaliy mashqlar ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan rang hissini o'stirishga qaratilgan innovatsion metodlar va kuzatuv mashqlarining samaradorligi tahlil etilgan. Xulosa sifatida, rangni to'g'ri his etish va qo'llash ko'nikmasi talabalarda estetik did, ijodiy fikrlash va kompozitsion madaniyatni shakllantiruvchi asosiy omil ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: rangtasvir, kontrast, palitra, axromatik-xromatik ranglar, yorug', soya, akvarel, bo'yoqlar.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦВЕТА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: В данной статье освещено развитие искусства в Узбекистане, внимание к изобразительному искусству и их связь с живописью. Основной целью статьи является эффективное использование новых методов в живописи для повышения мастерства студентов.



Рассматриваются психологическое воздействие цветов, гармония теплых и холодных цветов, а также важность практических упражнений для создания баланса света и тени. Кроме того, проанализированы инновационные методы и эффективность наблюдательных упражнений, направленных на развитие чувства цвета у преподавателя. В заключение подчеркивается, что умение правильно воспринимать и использовать цвет является основным фактором, формирующим эстетический вкус, творческое мышление и культурные навыки композиции у студентов.

Ключевые слова: Живопись, Контраст, Палитра, Ахроматические цвета, Хроматические цвета, Свет, Тень, Акварель, Краски

EFFECTIVE WAYS TO USE COLOR IN ART LESSONS

Annotation: This article discusses the development of art in Uzbekistan, the attention given to visual art, and its connection with painting. The main goal of the article is to effectively utilize new methods in painting to enhance students' skills. It highlights the psychological impact of colors, the harmony of warm and cool colors, and the importance of practical exercises in creating a balance of light and shadow. Additionally, the effectiveness of innovative methods and observational exercises aimed at developing color perception in students is analyzed. In conclusion, it is emphasized that the ability to correctly perceive and apply color is a key factor in shaping students' aesthetic taste, creative thinking, and compositional culture.

Keywords: Painting, Contrast, Palette, Achromatic colors, Chromatic colors, Light, Shadow, Watercolor Paintst

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda san'atga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Bugungi davrda san'at nafaqat estetik hodisa balki millatning, xalqning madaniy o'zligini saqlovchi vazifa sifatida ham alohida ahamiyatga egadir.



Yangi muzeylar, san'at galereyalari, madaniy markazlar ochilmoqda. Yoshlarni o'z bilim va ijodiy ko'nikmalarini qay tomonlama kuchli ekanligi bilishga doir tanlovlar o'tkazilmoqda. Mavjud san'at turlari takomillashayotgan bo'lsa, yangi san'at turlari ham rivojlanmoqda. Talabalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini orttirishda yangi metodlardan foydalanilmoqda. **Rang**- tasviriy san'atda muhim element bo'lib, u his-tuyg'ularni, kayfiyatni va ifodani taqdim etadi. Tasviriy san'at darslarida rangdan samarali foydalanish uchun bir nechta asosiy qoidalar va usullarni ko'rib chiqish mumkin. Tasviriy san'at darslarida rangdan samarali foydalanish- bu o'quvchilarning ijodkorligini oshirish va ularni ranglar bilan ishlashga rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ranglar inson ichki dunyosining ko'zgusidir. Inson kayfiyatiga, xarakteriga yoki holatiga qarab ranglardan foydalanishi o'zgaradi. Biror sur'atga qarab turib uning qanday kayfiyat bera olishini bilamiz. Asarni his qilishga, tushunishga harakat qilamiz. Shunday ekan, rassom rang orqali ichki hayqiriqlarini yoki quvonchli damlarini matoga tushirishini kuzatsak bo'ladi va bu tahsinga sazovor. **Ranglar palitrasi**- bu rassom tomonidan tanlangan va asarda uyg'unlik yaratish uchun ishlatiladigan ranglar majmuasidir. Har bir palitra rassomning hissiyotini, mavzuni va umumiy kayfiyatni ifodalaydi. To'g'ri tanlangan ranglar asarga hayot baxsh etadi, notog'ri uyg'unlik esa ifodaning kuchini kamaytiradi. Rangtasvir darslarida rang palitrasini to'g'ri tuzish o'quvchilarda rang sezgirliigi, uyg'unlikni his qilish va kompozitsion tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, sovuq va iliq ranglarni uyg'unlashtirish, kontrast va nozik rang o'tishlarini toppish- bu rang madaniyatini shakllantiruvchi muhim bosqichlardir. O'quvchilarga ranglar palitrasini tanlashni o'rgatish. Issiq (qizil, sariq, to'q sariq) va sovuq (ko'k, yashil, binafsha) ranglarni qanday qilib birlashtirish kerakligini ko'rsatish. Mavjud ranglardan kerakli boshqa ranglarni hosil qila olishni o'rganish. **Kontrast va uyg'unlik**- Ranglar orasida kontrast yaratish orqali tasvirlar ko'proq jozibador bo'ladi. Masalan, qora va oq ranglar bilan ishlash orqali o'quvchilar tasvirda chuqurlik va hayajon yaratishlari mumkin. Rangtasvirda kontrast — bu ranglar



orasidagi farqning kuchliligi, ya'ni bir-biriga qarama-qarshi ranglar orqali ifodaning kuchini oshirishdir. Kontrast orqali rassom tomoshabinning diqqatini kerakli joyga jamlaydi, asarga dramatizm yoki hayotiylik baxsh etadi. Masalan, qizil va yashil, ko'k va to'q sariq kabi qarama-qarshi ranglar birgalikda ishlatilganda kuchli ta'sir uyg'otadi. Bunga qarshi ravishda, rang uyg'unligi (garmoniya) esa ko'zga yoqimli, muvozanatli rang munosabatini yaratadi. Uyg'unlikda ranglar bir-birini to'ldiradi, raqobatlashmaydi, balki asardagi umumiy kayfiyatni bir yo'nalishda ifodalaydi. Masalan, iliq ranglar (qizil, sariq, to'q to'q sariq) bir palitrada ishlatilsa, asar issiqlik va quvonch hissini beradi; sovuq ranglar (ko'k, binafsha, yashil) esa tinchlik va chuqurlik hissini yaratadi. Rangtasvir darslarida o'quvchilar kontrast va uyg'unlikni tajriba orqali his qilishlari zarur. Bu mashqlarda: qarama-qarshi ranglar juftligini toppish; bir xil rangning turli ohanglarini uyg'unlashtirish; iliq va sovuq ranglarni muvozanatli joylashtirish; hamda bir asarda kontrast va uyg'unlikni uyg'un tarzda qo'llash kabi mashqlar muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, kontrast asarga kuch beradi, uyg'unlik esa uni tinchlantiradi. Rassom esa shu ikki kuch o'rtasidagi muvozanatni topganida, asar mukammallikka erishadi. **Rangning psixologiyasi-** O'quvchilarga ranglarning his-tuyg'ularni qanday ifodalashini o'rgatish. Masalan, qizil rang energiya va ehtirosni, ko'k rang esa tinchlik va xotirjamlikni ifodalaydi. **Ranglarni aralashtirish-** O'quvchilarga ranglarni aralashtirishni o'rgatish. Bu orqali yangi ranglar yaratish va kompozitsiyada yanada qiziqarli effektlar hosil qilish mumkin. **Amaliy mashg'ulotlar-** Rangdan samarali foydalanishni o'rgatish uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. O'quvchilarga turli ranglar bilan ishlashga imkon berish, shuningdek, ranglar yordamida tasvirlar yaratish. O'quvchilar o'z ishlarini tahlil qilishni o'rganishlari kerak. Ranglar qanday ishlaganini va qanday ta'sir ko'rsatganini muhokama qilish. Ranglar insonga shunchalik yangi g'oyalar uyg'otishga yo'l ochadiki, buni so'z bilan ta'riflash qiyin. Har bir amalni bajarish uchun uning tartibi bilan tanishish, reja tuzish va maqsadga mos harakat qilingani



kabi, rangda ishlashda ham ba'zi bir qoidalariga amal qilinadi. Bulardan yorug' va soyalarga issiq va sovuq ranglarni to'g'ri aniqlab qo'yish, ranglarni to'g'ri tanlay bilish, yorug' va soyani ajratish kabilar kiradi. Yana rangda ishlash jarayonida rangning toza olinishiga ham katta e'tibor beriladi. Bu usul har xil bo'yoqlarda turli uslubda ishlatiladi. Masalan, akvarelda ochdan to'qqa qarab ishlanadi. Bu degani, avvalo suyuq shaffof qilib berib olinsa, so'ngra, kerakli joylari to'qlashtirilsa, sur'at jonli va yumshoq ko'rinadi. Agar akvarelda ishlash davomida birdaniga to'q ranglardan foydalanib ish kirlashtirib yuborilsa, sur'at ko'rimsiz holga kelib qoladi. Akvarel bo'yog'i murakkabligi jihatidan boshqa bo'yoqlardan ajralib turadi. Masalan, moybo'yoq yoki guash akril kabi bo'yoqlarni ustma-ust qo'yish asnosida uning xato va kamchiliklarini bartaraf etish mumkin. Ammo akvarelni deyarli o'chirib bo'lmaydi. Shuning uchun foydalanilayotganda ehtiyotkorlik zarur. Moybo'yoqda esa aksincha, to'qdan ochga qarab ishlanadi. Murakkablik darajasi yaxshigina, ammo foydalangan sari insonni zavq-shavqi oshaveradi. Bir moybo'yoqada ishlab ko'rgan, zavqlangan inson bu bo'yoqlardan kecha olmay qoladi. Guashda ham ishlash texnikasi ajoyib. Unda ish tartib bilan ishlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

Manashunday qilib yanada yangi usullarni o'rganishimiz samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ayniqsa tasviriy san'at va rangtasvir darslarida juda ham zarurdir. Xususan, rangtasvir darslarida ham yanada yangi usullardan foydalangan holda, talabalarda rang ko'rish va rangda ishlay olish qobiliyatlari shakllantirilishi muhim deb bilaman. Hozirgi kunda ayniqsa, san'atga katta ahamiyat qaratilayotgan bir paytda tasviriy san'at va rangda yanada yangi usullardan foydalanish, davlatning san'at va ijodiy tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi. Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, tasviriy san'at darslarida rangdan samarali foydalanish talaba va o'quvchilarda ijodiy va badiiy tafakkurni rivojlantiradi. Ijodiy ko'nikmalarni oshiradi. O'z sohasini mukammal bilish insonni yanada yetuklikka



yetaklaydi. Darslardan, samarali foydalangan holda, ijodiy bilimlarni rivojlantiraylik azizlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, K. B. "Tasviriy san'at nazariyasi va metodikasi." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006
2. Abdullayev, A. "San'atshunoslikka kirish." – Toshkent: Fan, 2001.
3. Jalolov, N. "Rangshunoslik asoslari." – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
4. Tolipov, N. "Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari." – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
5. Mavlonova R.A., To'rayeva O.N., Xolmurzayeva D.I. "Pedagogika." – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
6. Kandinskiy, Vasiliy. "San'atda ma'naviyat haqida." "Concerning the Spiritual in Art." – New York: Dover Publications, 1977.
7. Albers, Josef. "Rangning o'zaro ta'siri." "Interaction of Color." – New Haven: Yale University Press, 1963.
8. Nemenskiy, B. M. "Izoobrazitelnoye iskusstvo i xudojestvennoye vospitaniye." Tasviriy san'at va badiiy tarbiya – Moskva: Prosveshcheniye, 1985.